

**ALFRAGANUS UNIVERSITY HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/25.08.2025.Ped.193.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA GULOY OLIMBOYEVNA

SA'DIY SHEROZIYNING TA'LIMiy-AXLOQIY QARASHLARI

13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Sharipova Guloy Olimboyevna

Sa’diy Sheroziyning ta’limiy-axloqiy qarashlari3

Шарипова Гулой Олимбоевна

Образовательные и нравственные воззрения Саади Ширази23

Sharipova Guloy Olimboevna

Educational and Moral Views of Saadi Shirazi45

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works51

**ALFRAGANUS UNIVERSITY HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/25.08.2025.Ped.193.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA GULOY OLIMBOYEVNA

SA'DIY SHEROZIYNING TA'LIMiy-AXLOQIY QARASHLARI

13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Ped6247 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.afu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajieva Maksuda Sultanovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Olimov Shirinboy Sharofovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna

filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Alfraganus university huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/25.08.2025.Ped.193.02 raqamli ilmiy kengashning 2026 – yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yuqori Qoraqamish ko‘chasi, 2a-uy. Tel.: +998 (78) 122-75-57; faks: +998 (78) 122-75-57, e-mail: info@afu.uz)

Dissertatsiya bilan Alfraganus university Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yuqori Qoraqamish ko‘chasi, 2a-uy. Tel.: +998 (78) 122-75-57.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 – yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025 – yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

Sh.I. Botirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., (DSc), professor

M.D. Omonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

M.F. Qurbonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fani rivojida XIII asrning mashhur fors shoiri Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" kabi adabiy asarlarida o'z ifodasini topgan tarbiyaviy va axloqiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sa'diy Sheroziy axloqiy tarbiyaning inson rivojlanishining asosiy jihati sifatida muhimligini ta'kidlab, chinakam donolik va ma'rifat faqat ilmiy bilimdan emas, balki halollik, mehr-oqibat, adolat kabi fazilatlarni tarbiyalashda deb hisoblagan. U asarlarida ko'pincha axloqiy saboqlarni allegorik hikoyalar orqali tasvirlab bergan.

Dunyoning nufuzli universitet va ilmiy markazlari: Harvard Universiteti (AQSh), Prinston Universiteti (AQSh), Oxford Universiteti (Buyuk Britaniya), Sankt-Peterburg Universiteti (Rossiya)da olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki, Sa'diy o'z davrida insonparvarlik qadriyatlari tarafdori bo'lib, kelib chiqishi va mavqeyidan qat'i nazar, barcha shaxslarning qadr-qimmati, huquqlari va farovonligini himoya qilganligi bizga ma'lumdir. U insonlar o'rtasida barqaror ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va adolatli jamiyat barpo etishning muhim fazilatlari sifatida hamdardlik, mehr-oqibat va bag'rikenglikni keng targ'ib qilgan. Insof va axloqiy xulq-atvor Sa'diy ta'limotida asosiy mavzulardan hisoblangan.

Mamlakatimizda zamonaviy jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish, ular orasida insonparvarlik, halollik, adolat va sabr-toqat kabi fazilatlarni tarbiyalash ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biridir. Sa'diy asarlarida mujassam bo'lgan tarbiyaviy g'oyalar, ayniqsa "Guliston" va "Bo'ston" asarlaridagi ma'naviy-axloqiy tamoyillar, yoshlarni kamolotga yetaklashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda global o'zgarishlar va axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi sharoitida, mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy qarashlarini chuqur o'rganish va zamonaviy pedagogik jarayonlarga tatbiq etish nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki milliy ma'naviyatni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur".¹ Shu sababli Sa'diy Sheroziyning ta'limiy-axloqiy qarashlarini tadqiq qilishning ahamiyati va dolzarbligi ilmiy, amaliy va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada bo'lib, zamonaviy pedagogika sohasida yangi yondashuvlarni shakllantirish uchun asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – B.225.

to'g'risida"gi farmonlari; 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sa'diy Sheroziyning ta'limiy-axloqiy qarashlariga oid tadqiqot ishlari o'zbek olimlaridan M.Xajiyeva, M.Azimov, A.Zunnunov, N.Komilov, R.Komilov, E.Yusupov, O.Musurmonova, I.Choriyev, S.Nishonova² va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ular Sa'diy Sheroziy pedagogik va ma'naviy-axloqiy g'oyalarini yaxlit holda tadqiq qilganlar. Xususan, Sa'diy Sheroziy qalamiga mansub asarlarni turli nuqtayi nazardan o'rganib, uning she'riyatiga singib ketgan madaniy, falsafiy va axloqiy qarashlarini yoritib berganlar. Ularning tadqiqotlari Sa'diy Sheroziyning pedagogik g'oyalariga to'g'ridan to'g'ri taalluqli bo'lmasa-da, ijodining tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishga qiziqqan o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun qimmatli kontekst beradi.

MDH olimlari S.Rahimzoda, N.Arabzoda, X.Sharifov, K.Bekzoda, A.Muxtarov, A.Xabibzoda, R.Dodixudoyev, A.Shoxumorov, M.Orifiy, B.G'ofurov, A.Nurova, B.Rahimova³ va boshqalar Sa'diy Sheroziyning ijtimoiy-falsafiy va psixologik-

² Xajiyeva M.S. Musulmon renessansi ijtimoiy-madaniy an'analarning pedagogik asoslari (Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy qarashlari asosida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq – 2023. B.17. ; Azimov M. Sharq adabiy merosi va tarbiya masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 230 b. ; Zunnunov A. Ўзбек педагогика тарихи. – Toshkent: Ўқитувчи, 2006. – 310 б. ; Комилов Н.Тасаввуф: маънавий покланиш фалсафаси. – Toshkent: Мовароуннахр, 2016. – 220 б. ; Комилов Р. Шарқ адабиёти ва фалсафаси. – Toshkent: Фан, 2005. – 240 б. ; Юсупов Е. Форс-тоjik адабиёти тарихи. – Toshkent: Университет, 2011. – 270 б. ; Мусурмонова О. Педагогик мерос ва маънавият. – Toshkent: Ўқитувчи, 2012. – 210 б. ; Чориев И. *Мумтоз адабиёт мероси тахлили*. – Қарши: Насаф, 2017. – 192 б. ; Нишонова С. Педагогик тафаккур тарихи. – Toshkent: Фан, 2009. – 250 б.

³ Рахимзода С. Саади Шерози: социально-нравственные взгляды. – Душанбе: Маориф, 2017. – 188 с. ; Арабзода Н.Таджикская литература и нравственное воспитание. – Душанбе: Адиб, 2014. – 240 с. ; Шарифов Х. Саади и гуманистические идеи Востока. – Душанбе: Ирфон, 2013. – 170 с. ; Бекзода К. Восточная педагогика: традиции и современность. – Душанбе: Сино, 2020. – 210 с. ; Орифи М. Ахлоки хамида дар адабиёти форсӣ. – Душанбе: Паёми донишгоҳ, 2017. – 160 с. Гафуров Б. Таджики: древнейшая история и культура. – Москва: Наука, 1972. – 400 с. ; Нурова А.Ахлоки иҷтимоӣ дар мероси форсӣ. – Душанбе: Адиб, 2019. – 190 с. ; Рахимова Б.Педагогические идеи средневековых мыслителей. – Душанбе: Маориф, 2014. – 210 с. ; Файзалиева. Саади ва чихатҳои тарбиявии осораш. – Душанбе: Сино, 2021. – 165 с.

pedagogik merosini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Biroq Sa'diy Sheroziyning adabiy asarlari mazkur olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning pedagogik g'oyalari, ayniqsa, zamonaviy akademik ma'noda ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi bo'lmagan. Biroq adabiyot, madaniyatshunoslik va maorif kabi sohalar olimlari Sa'diyning asarlarini tahlil qilib, fors madaniyati, axloqi va ta'lim-tarbiyasining turli jabhalariga oid ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

G'arb olimlari qatoriga A.Ashraf (AQSh), C.Y.Bosvort (Angliya), Fransua de Blois (Fransiya), Rypka (Niderlandiya), Dabashi, Hamid (AQSh), E.G.Braun (Angliya), R.M.Chopra (Hindiston), Sautgeyt, S.Minoo (Eron)⁴ va boshqa tadqiqotchi olimlarni kiritish mumkin.

Eronlik-amerikalik olim va fors adabiyoti professori Farzaneh Milani fors adabiyoti va madaniyatida, jumladan, Sa'diy Sheroziy asarlarida ayollarning namoyon bo'lishi haqida yozgan. Uning tadqiqotlari pedagogika bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, Sa'diy she'riyatining axloqiy va ijtimoiy jihatlarini kengroq tushunishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017–2030-yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Sa'diy Sheroziyning asarlaridagi pedagogik g'oyalar asosida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishni nazariy asoslab berish, uni oliy ta'lim muassasalariga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sa'diy Sheroziy pedagogik qarashlarining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-tarixiy omillarning ta'sirini o'rganish, ularning nazariy metodologik asoslarini tahlil qilish hamda mazkur qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lgan tarixiy jarayonlar, ma'naviy-madaniy muhit va madaniy an'ana uyg'unligini o'rganish, shuningdek, pedagogik tafakkurning rivojida tutgan o'rnini zamonaviy konseptual yondashuv asosida ochib berish;

Sa'diy Sheroziyning asarlarida ilgari surilgan odob-axloq, ilm olish, kasb-hunar egallash, mehnat qilish, ustoz va shogirt o'rtasidagi munosabatlar kabi tarbiyaviy g'oyalarni empirik dalillar asosida o'rganish, ularning zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan uzviy bog'liqligini ochib berish hamda mazkur g'oyalarning yoshlar tarbiyasidagi amaliy ahamiyatini tahlil qilish;

Mutafakkirning ma'naviy-merosiy qarashlari asosida yoshlarda mehnatsevarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va saxovatlilik kabi ijtimoiy-ma'naviy

⁴ Ашраф А. Persian Literature and Ethics. – New York: Columbia University Press, 2008. – 280 p. ; Босворт С.Е. The Persian Literary Tradition. – London: I.B. Tauris, 2012. – 260 p. ; Блуа, Франсуа. Persian Literature: A Bibliographical Survey. – London: The Royal Asiatic Society, 2004. – 312 p. ; Рьпка Я. History of Iranian Literature. – Dordrecht: Reidel Publishing, 1968. – 530 p. ; Дабаша Хамид. The World of Persian Literary Humanism. – Cambridge: Harvard University Press, 2012. – 406 p. ; Браун Е.Г. A Literary History of Persia. – London: T. Fisher Unwin, 1902–1924. – 4 т.: ҳар бири тахм. 400–500 p. ; Чопра Р.М. The Rise of Persian Poetry. – New Delhi: Anmol Publications, 2010. – 350 p. ; Саутгейт, Миноо С. Persian Poets and Moral Philosophy. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 240 p.

fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mazmunini ilmiy asoslash, bu sifatlarning shaxs kamolotidagi o‘rni va ularni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash;

Sa’diy Sheroziyning pedagogik qarashlarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganish, bu asosda pedagogik shakllar va didaktik uslublarni ishlab chiqish hamda ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida OTMlarda Sa’diy Sheroziy asarlari asosida talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” bakalavr ta’lim yo‘nalishining 199 nafar, Buxoro davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” bakalavr ta’lim yo‘nalishining 185 nafar, Termiz davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” bakalavr ta’lim yo‘nalishining 221 nafar talabarlari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Sa’diy Sheroziy asarlari asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, tizimlilik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

Sa’diy Sheroziyning pedagogik qarashlari tarbiyaviy yo‘nalishlar doirasida imitatsion va pedagogik xususiyatlarining ma’naviy-axloqiy an‘analari asosida qiyosiy tipologiyasi ilmiy asosda aniqlashtirildi hamda mazkur yondashuv orqali Sa’diy ta’limoti asosidagi tarbiyaviy metodlar va axloqiy qadriyatlarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning yoshlar ma’naviy kamolotidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Sa’diy Sheroziyning pand-nasihatlari orqali talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonining destruktiv va konstruktiv tomonlari, shuningdek, evristik, psixologik-pedagogik, metodologik xususiyatlari hamda ularning amaliy imkoniyatlari tahlil qilindi hamda mazkur jarayon milliy ta’lim identifikatsiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq ma’naviy-axloqiy mezonlar doirasida olib borilib, ta’lim va tarbiyaning sifatini kvantitativ va sifat jihatdan baholashga imkon beruvchi kvalimetrik usullar yordamida aniqlashtirilgan.

Yoshlarning “halollik”, “sharaf”, “adolat” va “vijdon” tushunchalari bilan bog‘liq pedagogik hamda psixologik ko‘rsatkichlari Sa’diy Sheroziyning ma’naviy-axloqiy qarashlari asosida aniqlab olinib, ularni milliy an‘analarga mos ravishda tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan mexanizmlari takomillashtirilgan.

Mutafakkirlarning qarashlarida komil inson fazilatlariga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashning uslubiy va kreativlik mezonlari sotsiometrik ko‘rsatkichlar yordamida aniqlanib, bu asosida talabalarda fikrlash, dunyoqarash va ijodiy jarayonlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan improvizatsion faoliyatni oshirish maqsadida ma’naviy-tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llashga oid didaktik ta’minot tizimini takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sa’diy Sheroziy yaratgan pedagogik va ma’rifiy asarlar kontekstida ma’naviy-axloqiy pozitsiyalarni hisobga olish imkonini beradi, ular ta’lim va tarbiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, ular sifat jihatidan o‘zini namoyon qiladi.

Sa'diy Sheroziyning pedagogik merosi uning ta'lim va tarbiya haqidagi ma'rifiy g'oyalarini o'z ichiga oladi. Ushbu g'oyalar mashhur olim-ustoz yashab ijod qilgan davrning madaniyati va ma'rifatining umumiy holatini aks ettiradi. Shuningdek, ular insonparvarlik yondashuvining nazariy va amaliy jihatlarini ham ochib beradi.

Sa'diy Sheroziyning g'oyat yuksak qadriyatga ega ijodiy merosi respublikamiz umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari tarbiyaviy ishlarida beqiyos ahamiyatga ega. Sa'diy Sheroziyning inson shaxsiyatining o'ziga xosligi, tarbiyaning real va ma'naviy omillari, uning mazmuniga umuminsoniy, milliy va individual-shaxsiy qadriyatlarni kiritish, axloqiy tarbiyasi uchun sharoit yaratish haqidagi tarbiyaviy va psixologik-pedagogik qarashlari yosh avlod shaxsini rivojlantirish uning qoidalarini gumanistik pedagogikaning istiqbolli yo'nalishi sifatida tavsiflaydi, shuningdek, ta'lim va shaxsiy tarbiya sohasidagi keyingi nazariy, ilmiy va uslubiy ishlanmalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, avvalo, muammoning ilmiy jihatdan aniq va izchil qo'yilganligi hamda nazariy asoslarni yoritishda ishonchli ilmiy manbalar va tarixiy-pedagogik adabiyotlarga tayangan holda tadqiqot olib borilganligi bilan ta'minlanadi. Ish jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuvlar ilmiy tekshirish standartlariga mos ravishda tanlanib, olingan ma'lumotlar ilmiy tahlil, solishtirish, umumlashtirish va pedagogik diagnostika kabi metodlar orqali sinovdan o'tkazildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ilgari surilgan nazariy g'oya va xulosalar amaliy jarayonda qo'llab ko'rib, ularning samaradorligi pedagoglar, mutaxassislar va tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi natijalar ishonchliligini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqotning nazariy asoslaridan yakuniy xulosalarigacha bo'lgan barcha bosqichlar ilmiy mezonlarga tayangan holda bajarilganligi ushbu ishning ilmiy ishonchliligini kafolatlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Sa'diy Sheroziyning ta'limiy-axloqiy qarashlari zamonaviy pedagogika konsepsiyalari bilan uyg'un holda tizimli tahlil qilinib, uning tarbiyaviy merosi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yangicha talqinda yoritildi. Sa'diy asarlaridagi axloqiy barkamollik, insonparvarlik, odillik, halollik, mehr-shafqat, odob va komillikka da'vat kabi g'oyalar zamonaviy tarbiya nazariyasi nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqilib, pedagogik jarayon uchun dolzarb bo'lgan konseptual asoslar shakllantirildi.

Mazkur tadqiqot doirasida Sa'diy Sheroziyning axloqiy merosidan talaba-yoshlar tarbiyasida foydalanishning ilmiy modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda shaxsning axloqiy ongini rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, muloqot madaniyatini mustahkamlash va odob-axloq qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirish kabi jarayonlarning nazariy mexanizmlari asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, Sa'diy Sheroziyning ta'limiy-axloqiy qarashlari asosida talaba-yoshlar tarbiyasiga mo'ljallangan samarali pedagogik metodlar, treninglar, tarbiyaviy mashg'ulotlar va didaktik ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Ushbu metodik yondashuvlar o'quv jarayoniga moslashtirilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey, kollej va umumta'lim maktablarining tarbiyaviy faoliyatida qo'llash uchun amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan axloqiy-tarbiyaviy modul va mashg'ulotlar strukturasi Sa'diy hikmatlaridan foydalanish tartibi, talabalarda axloqiy refleksiya va madaniy xulq me'yorlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy topshiriqlar, muhokama va dialog metodlari taklif etildi. Bu yondashuvlar tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar uchun samarali metodik qo'llanma vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sa'diy Sheroziyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid pedagogik qarashlari rivoji mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida:

Sa'diy Sheroziyning pedagogik qarashlari tarbiyaviy yo'nalishlar doirasida imitatsion va pedagogik xususiyatlarining ma'naviy-axloqiy an'analari asosida qiyosiy tipologiyasi ilmiy asosda aniqlashtirildi hamda mazkur yondashuv orqali Sa'diy ta'limoti asosidagi tarbiyaviy metodlar va axloqiy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning yoshlar ma'naviy kamolotidagi ahamiyati asoslab berilgan. "Ijtimoiy ish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug'i, 277-396-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talaba-yoshlarning ta'lim-tarbiyasidagi axloqiy ma'naviyatini yuksaltirishning uslubiy va didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

Sa'diy Sheroziyning pand-nasihatlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonining konstruktiv va destruktiv tomonlari, shuningdek, psixologik-pedagogik, evristik va metodologik xususiyatlari hamda ularning amaliy imkoniyatlari tahlil qilindi hamda mazkur jarayon milliy ta'lim identifikatsiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ma'naviy-axloqiy mezonlar doirasida olib borilib, ta'lim va tarbiyaning sifatini kvantitativ va sifat jihatdan baholashga imkon beruvchi kvalimetrik usullar yordamida aniqlashtirilgan. O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan "A-OT-2021-11- raqamli "O'zbekiston xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron- transdisiplinar platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining 2025-yil 22-oktabrdagi 04/11-23788 ma'lumotnomasi). Natijada, Sa'diy ta'limoti asosida tarbiyaviy metodlar va axloqiy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning ma'naviy kamolotidagi ahamiyatini asoslashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Yoshlarning "halollik", "sharaf", "vijdon" va "adolat" tushunchalari bilan bog'liq pedagogik hamda psixologik ko'rsatkichlari Sa'diy Sheroziyning ma'naviy-axloqiy qarashlari asosida aniqlab olinib, ularning milliy an'analarga mos ravishda tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan mexanizmlari takomillashtirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 1-avgustdagi 277-sonli buyrug'i, 277-396-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, Sa'diy ta'limoti asosida tarbiyaviy metodlar va axloqiy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning ma'naviy kamolotidagi ahamiyatini asoslashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Mutafakkirlarning qarashlarida komil inson fazilatlariga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashning uslubiy va kreativlik mezonlari sotsiometrik ko'rsatkichlar yordamida aniqlanib, bu asosida talabalarda fikrlash, dunyoqarash va ijodiy jarayonlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan improvizatsion faoliyatni oshirish maqsadida ma'naviy-

tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llashga oid didaktik ta'minot tizimi takomillashtirilgan. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston teleradiokanali", "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Bolalar va biz", "Millat va ma'naviyat" kabi dasturlarning ssenariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 7-noyabrdagi 05-09-1753-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim va shaxsiy tarbiya sohasidagi keyingi nazariy, ilmiy va uslubiy ishlanmalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 4 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola shu jumladan, xorijiy ilmiy jurnallarda 3 ta va respublika ilmiy jurnallarda 4 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 145 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sa'diy Sheroziyning pedagogik g'oyalarini tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida XIII asr Sharq xalqlari tarixidagi eng murakkab va fojiali davrlardan biri bo'lganligi izohlanadi. Unda mo'g'ullar tomonidan amalga oshirilgan yirik bosqinchilik yurishlari natijasida O'rta Osiyo, Eron, Iroq va boshqa mintaqalardagi ko'plab shahar va qishloqlar vayron qilingani, ilmiy va madaniy markazlarning yo'qotilgani, ayniqsa, madrasalar, kutubxonalar, nodir qo'lyozmalar saqlangan ilm dargohlarining barbod bo'lgani tahlil qilinadi. Bu holat moddiy boyliklarga qanchalik zarar yetkazgan bo'lsa, ma'naviy merosning katta qismi ham shuncha talafot ko'rganligi alohida ta'kidlanadi.

Dissertantning qayd etishicha, bu davrda feodal tuzum ruhoniylar yordamida xalqni taqdirga bo'ysunishga, diniy-axloqiy chegaralardan chiqmaslikka undagan. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimining rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ana shunday murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitda buyuk fors mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziy voyaga yetgan va ijod qilgan.

Manbalarda uning hayoti haqida turlicha va ba'zan qarama-qarshi ma'lumotlar uchraydi. Tadqiqotchilarga ko'ra, Sa'diyning tug'ilgan yili hijriy 580 (milodiy 1184), hijriy 589 (milodiy 1193) yoki milodiy 1204-yil deb ko'rsatiladi. Yoshligida otasidan

erta yetim qolgan Sa'diy saroy tomonidan tayinlangan nafaqa hisobiga ta'limini davom ettirgan. U dastlabki bilimlarni Sherozda olib, so'ngra Bag'dodga yo'l oladi va u yerda mashhur "Nizomiya" madrasasida tahsil olgan.

Bobda Sa'diy asarlarining bizgacha yetib kelishi asosan uning vafotidan keyin tuzilgan ikki "Kulliyot" bilan bog'liq ekani, ular asosida asarlarining pedagogik mazmuni tahlil qilinganligi yoritiladi. "Kulliyot"lardan biri Ali bin Ahmad bin Abu Bakr Besutun tomonidan tuzilgan bo'lib, 19 bo'limdan iborat. 13 bo'limdan iborat ikkinchi "Kulliyot"ning tuzuvchisi noma'lum. Eron olimi Mohammadali Furogi 1941-yilda ana shu ikki manba asosida Sa'diy asarlarining to'liq majmuasini nashr ettirgan. Mazkur majmuada diniy-pedagogik asarlar, "Guliston", "Bo'ston", arab va fors qasidalar to'plami, axloqqa oid "Tarjibband" risolasi hamda to'rt devon jamlangan. Ushbu keng qamrovli to'plam Sa'diy ijodining janrlar rang-barangligi, uslubiy yetukligi va serqirraligini yaqqol namoyon etadi. "Sa'diy Sheroziyning "Guliston" ("Atirgul bog'i") va "Bo'ston" ("Mevali bog'") asarlari Hindiston va Forsdagi millionlab odamlarning axloqiy qarashlarini shakllantirgan ikki klassik so'fiy asarlardir. Sa'diy hayot tarzida ko'plab sarguzashtlarni o'z boshdan kechirgan sargardon darvesh bo'lgan. U salibchilar asirligiga tushib, ariqlar qazishga ham majbur bo'lgan, Sharqning turli ilm markazlarida bo'lib, mislsiz nasriy va she'riy asarlar yaratgan. Bag'dodda mashhur faylasuf Umar Xayyomning do'sti, Shoh saroyi vaziri Nizom al-Mulk Tusi asos solgan "Nizomiyya" madrasasida tahsil olgan. Sa'diy naqshbandiya so'fiylik tariqatiga mansub bo'lib, suhravardiya mazhabi asoschisi, "Damr ustuni" va barcha zamonlarning eng buyuk so'fiylaridan biri hisoblangan Najmuddin Kubro shayx Shohbuddin Suhravardiy bilan yaqin aloqada bo'lgan".⁵ Uning "Guliston" va "Bo'ston" kabi nufuzli asarlarida islom oltin asrida forsiyzabonlar dunyosining adabiy va falsafiy yutuqlari timsoli bo'lgan. A.Hayitmetov fikricha, "Sa'diy ijodi zamondoshlari va undan keyingi avlod shoir va olimlari tomonidan yuksak baholanib, fors adabiy an'anasi rivojiga hissa qo'shgan. "Bo'ston" kitobiylikdan uzoq bo'lib, u bevosita qaynoq ijtimoiy-siyosiy hayotdan, jonli xalq tilidan suv ichgan, oziqlangan va shuning uchun ham jamiyatning hamma tabaqalariga tushunarli bo'lgan".⁶

Dissertantning ta'kidlashicha, Sa'diy ijodining buyukligi uning axloqiy-pedagogik g'oyalari hamda adabiy merosi ko'p asrlar davomida o'z dolzarbligi va qadr-qimmatini saqlab kelayotganida namoyon bo'ladi. Uning fikrlari va g'oyalari dunyodagi ko'plab odamlar uchun muhim va ilhomlantiruvchi bo'lib qolmoqda. Sa'diyning so'zlari boshqalarning mehnati va dardiga hamdardlik, mehr va hurmat muhimligini eslatadi. U haqiqiy insoniy qadr-qimmat boshqalarga g'amxo'rlik qilish va qo'llab-quvvatlash, hamdardlik va adolatda bo'lishini o'rgatgan. Uning asarlarida ifodalangan bunday qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega bo'lib, barcha millat va madaniyat vakillari uchun ilhom va yo'l-yo'riq manbai bo'lib xizmat qilishi

⁵ Гуломов А.О. Просветительско — педагогические воззрения Саади Ширази и их отражение в учебно-воспитательном процессе общеобразовательных учреждений Республики Таджикистан : автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. — Душанбе, 2020. — 27 с.

⁶https://www.ziyouz.com/books/sharq_mumtoz_adabiyoti/Sa'diy%20Sheroziy.%20G'azal,%20ruboiy,%20hikmatlar.pdf

mumkin. Aynan chuqur hikmat va axloqiy qadriyat tufayli Sa'diy ijodi hozirgi zamon jamiyati uchun ham dolzarb va qimmatli bo'lib qolmoqda.

Bobda Sa'diyning Yevropa adabiyotiga kuchli ta'siri umume'tirof etilgani haqiqatlardan biri ekanligi ham izohlanadi. Uning asarlari ko'plab G'arb afsonalari va allegoriyalarining manbai bo'lgan Gesta Romanorumga asos bo'lgan. Sa'diy asarlarining Yevropadagi dastlabki tarjimalari XVII asrdan boshlab paydo bo'lgan. Xarakterli jihati shundaki, aksariyat so'fiy asarlarning, jumladan, Sa'diy asarlarining ichki ma'nosini so'zma-so'z tarjima prizmasidan o'tkazish deyarli mumkin emas. Buni zamonaviy mufassirlardan birining so'zlari aniqlik bilan tasdiqlaydi, garchi ular Sa'diyning nuqtayi nazari haqida emas, balki mufassirning o'zi haqida ko'proq gapirsa ham: "Uning fe'l-atvori so'fiy bo'lgan-bo'lmaganiga katta shubha uyg'otadi. Unda tasavvufni didaktika bo'ysundirilganligini ko'rishimiz mumkun"⁷. "Sa'diyning yuksak insonparvarlik xalqparvarlik va falsafiy-axloqiy g'oyalari bilan yo'g'rilgan maslak va orzulardan yorqin dalolat berib turishi bilan birga, ayni vaqtda, mazkur shoh bayti adabiyot va jamiyatning mangu muammolarini yoritishi bilan ham e'tiborlidir. Ya'ni, butun ijodi va ruhiyatida islom ma'rifati va aqidalari ustuvor bo'lgan. Sa'diy kishilarni hamisha odamiylikka, insoniy komillikka boshlab, nafaqat ezgulik va muruvvatning oliy bir namunasi deb bilgan, balki kishilik jamiyatining ma'naviy tayanch ustunlari sifatida beqiyos qadrlagan. Shu tariqa u o'z ijodini asrlar davomida eskirmaydigan hayotbaxsh, umuminsoniy falsafiy va pedagogik g'oyaviy qarashlari bilan muzayyan etgan"⁸.

Bobda Sa'diyning ma'naviy merosi jug'rofiy va madaniy chegaralarni bosib o'tib, fors tilida so'zlashuvchi dunyodan tashqaridagi turli adabiy an'analarga chuqur ta'sir ko'rsatishi ham izohlanadi. Sa'diyning odob-axloq, donishmandlik, insonparvarlik kabi umumbashariy mavzulari turli madaniyatli o'quvchilarda aks-sado berib, uni jahon adabiyotining sevimli siymosiga aylantirdi. N.Komilovning ta'kidlashicha, "Guliston" asari fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. U pand-u nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan... Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millat-u elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan musajja' nasriy jumlar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan⁹. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlari ham, yengil hazil-mutoyiba, lutf-u nuktadonligi ham, his-tuyg'ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Shu sababli har xil toifadagi, turli ta'bli odamlar "Guliston"dan bahra ola biladilar"¹⁰.

"Guliston" asari hayotiy hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, Sa'diyning bu hikoyalarining oxirida qisqa shaklda keltirilgan she'rlari haqiqiy hayotdan olingan

⁷ Гуломов А.О. Просветительско — педагогические воззрения Саади Ширази и их отражение в учебно-воспитательном процессе общеобразовательных учреждений Республики Таджикистан: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. — Душанбе, 2020. — 27 с.

⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/sadiy-sheroziy-izhodi-merosing-shar-hal-lari-ahlo-iy-talimotlarining-rivozhlanishiga-tasiri>

⁹ Komilov N. Sharq mumtoz adabiyoti. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. - B. 134.

¹⁰ https://www.ziyouz.com/books/sharq_mumtoz_adabiyoti/Sa'diy%20Sheroziy.%20G'azal,%20ruboiy,%20hikmatlar.pdf.

xulosalar sifatida jahondagi ilm ixlosmandlarini o‘ziga jalb qilmoqda. BMTning Tinchlik Kengashi binosining old tomoniga ushbu asardan olingan quyidagi misralar bitilgan:

بيکرنډ يک اعضای بنآدم
گوهرنډ يک ز آفرينش در که

روزگار آورد درد به عضوی چو
قرا نماند را عضوها دگر

بيغمی ديگران محنت کز تو
آدمی 11 نهند نامت نشاید که

Ushbu baytlar “odam bolalari dastlab bir toshdan yaratilgan bo‘lgani sababli butun bir vujudga o‘xshaydilar. Shunday ekan, zamon ularning bir a’zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a’zolari ham tinchlikni yo‘qotadi. Agar sen boshqalar azobiga befarq bo‘lsang, senga odam deyish qiyin”, degan mazmunni ifodalaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sa’diy Sheroziyning ma’naviy merosiga oid qarashlaridan foydalanishning shakl, metod va vositalari**” deb nomlanadi. Mazkur bobda Sharq ma’naviyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Sa’diy Sheroziyning asarlarida hukmdor shaxsiga qo‘yiladigan axloqiy talablar, boshqaruv tamoyillari va ma’naviy mezonlar tahlil qilinadi. Mutafakkir ilgari surgan g‘oyalar bugungi davlat boshqaruvi, axloqiy liderlik va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalari bilan uyg‘unligi jihatidan ham dolzarb hisoblanadi.

Sa’diy tomonidan belgilangan rahbarlik mezonlari:

Adolat tamoyiliga sodiqlik. Sa’diy fikricha, hukmdor boshqaruvda adolatni ustuvor tamoyil sifatida belgilashi lozim. U adolatni davlatning mustahkamligi va xalqning farovonligi bilan chambarchas bog‘laydi. Adolat hukmdor siyosatining asosiy mezoniga aylansa, ijtimoiy ishonch vujudga keladi.

Shaxsiy halollik va poklik. Rahbarning o‘zi halol bo‘lmasa, u boshqalarni halollikka unday olmaydi. Sa’diy hukmdorning ichki dunyosi, niyatlarining sof va manfaatdan holi bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Bu fikr bugungi kunda “axloqiy liderlik” konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Xalq bilan samimiy aloqalar. Sa’diy rahbar va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni otaning farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati bilan qiyoslaydi. Bu degani – hukmdor o‘z xalqining ehtiyojlariga befarq bo‘lmasligi, ularni eshitib, yechim izlashga tayyor bo‘lishi kerak.

Mas’uliyat hissi va boshqaruvdagi hushyorlik. Har bir qarorning oqibatlarini oldindan anglash, harakatning natijasini chuqur o‘ylab ko‘rish – Sa’diy nazarida rahbarning ajralmas sifati sanaladi. Bu omil rahbarlik faoliyatida strategik fikrlashni anglatadi.

Axloqiy namuna bo‘lish. Sa’diy hukmdorni jamiyat uchun axloqiy ibrat manbai deb hisoblaydi. Rahbarning har bir harakati, muomalasi va qarori jamiyat tomonidan kuzatiladi va unga ta’sir etadi. Shu bois u har sohada o‘ziga yuqori axloqiy talablar qo‘yishi lozim.

11 شيخ مصلح الدين سعدی شیرازی. تهران 1376 سپهفیه 448

Bobda haqiqiy hukmdorning kun tartibi masalasi ham batafsil sharhlanadi. Sa'diy fikricha, hukmdor vaqtini uch asosiy qismga bo'lishi lozim. Birinchi qismi davlat boshqaruvi va xalq ishlariga bag'ishlanadi — bu siyosiy masalalar, xalq farovonligi va tashqi aloqalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi qism esa insoniy ehtiyojlar — uyqu, hordiq va dunyo lazzatlaridan me'yorida foydalanishga ajratiladi. Bu vaqt orqali hukmdor jismonan va ruhan tiklanadi. Uchinchi va eng muhim qism esa ma'naviy kamolotga — ibodat, fikrlash va ruhiy poklanishga bag'ishlanadi. Ayniqsa, tong payti — qalb eng toza, ong tiniq bo'lgan lahzalarda Alloh bilan yolg'izlikda qolish, Yaratganga shukr aytish, hidoyat va to'g'ri yo'l so'rash hukmdor uchun nihoyatda zarurdir. U shunday qilishi kerakki, har bir ishini xayrli niyat bilan boshlasin, xalqiga foydali bo'lishni istasin va Allohdan har bir ishda baraka va muvaffaqiyat so'rashni unutmasin. Zero, yaxshi niyat va samimiy duo hukmdorning eng kuchli qurollaridan biridir.

Mutafakkirning fikriga ko'ra, hukmdor o'zining qimmatli vaqtini uchga ajratishi kerak: biri mamlakatni va dunyo ishlarini boshqarish uchun; yana biri uxlash, dam olish va dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lish uchun; uchinchisi Allohga sajda qilish, ibodat qilish va muhokama qilish uchun. Ayniqsa, inson qalbi eng sof va ravshan bo'ladigan tong paytida. Monarx yaxshi amallarni qilishni niyat qilishi va Alloh taolodan unga xayrli ishlarda muvaffaqiyat berishini so'rab duo qilishi lozim. U Allohga va bandalariga chin yurakdan halol bo'lishi kerak. Shuningdek, hayotning har bir mashaqqati — insonni ruhiy yuksalishga olib boruvchi dars ekanini eslatadi.

Sa'diy keltirgan quyidagi she'r hayotdagi nisbiylik, inson holatlari va qadriyatlar farqini badiiy ifoda etadi:

*Ey to'q kishi, sening uchun arpa noni yoqimsiz,
Senga xunuk ko'ringanlar menga xurshid tal'atdir.
Jannatdagi hurlar uchun a'rof bo'lsa jahannam.
Do'zaxdagi kishilarga a'rof o'rni jannatdir.
Farqi shuki, bittasining quchog'ida go'zal yor,
Bittasining ikki ko'zi yor yo'lida intizor.¹²*

She'r umumiy mazmuni bilan inson qadriyatlari va holatlarning nisbiyligi, hayotga bo'lgan qarashlarning xilma-xilligi hamda iqtisodiy va ruhiy holatlarning farqli idrokini aks ettiradi. Shoir har bir inson o'z joyidan, o'z imkoniyatidan kelib chiqib hayotga baho berishini ta'kidlaydi. Bu esa o'quvchilarga hayotni boshqalarning ko'zi bilan ko'rishga urinish, empatiya va sabr bilan yashashga undaydi.

Talabalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda Sa'diy asarlaridan foydalanishning bir qator samarali usullari mavjud:

1. Interaktiv darslar. Sa'diy Sheroziyning asarlarini o'rganish — bu o'qituvchi va talabalar o'rtasida faol muloqot asosida kechadigan dars shaklidir. Sa'diy asarlaridagi axloqiy muammolar asosida tashkil etilgan savol-javoblar, muhokamalar va kichik guruhlar bilan ishlash:

- talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi;
- axloqiy qadriyatlarni mustaqil tushunish va sharhlashga undaydi;
- har bir talabaning o'z nuqtayi nazarini bildirishga rag'batlantiradi.

¹² Саъдий Шерозий. Гулистон. – Тошкент. ФАН нашриёти, 2015- Б18.

Masalan, “Guliston” asaridagi bir hikoyani o‘qib chiqqach, unda ko‘tarilgan axloqiy muammoni tahlil qilish, “Agar siz shu voqeda qatnashgan bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?” degan savol atrofida fikr almashish darsni jonlantiradi.

2. *Teatr ko‘rinishlarida sahnalashtirish.* Sa‘diy hikoyalarini sahnalashtirish — talabalarga nafaqat o‘qilgan matnni tushunish, balki uni his qilish imkonini beradi. Teatr shaklida ijro etilgan sahnalar orqali:

- talabalar voqealardagi axloqiy tanlovni chuqurroq anglaydi;
- har bir qahramonning ichki kechinmalarini o‘zlashtiradi;
- sahnada ishtirok etish orqali ijtimoiy mas‘uliyat, empatiya va o‘zaro tushunishni o‘zida shakllantiradi.

Bu usul o‘z-o‘zini ifoda etish, jamoaviy ishlash va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ham samaralidir.

3. *Rolli o‘yinlar orqali axloqiy muhokamalar.* Rolli o‘yinlar – bu talabalar turli obrazlarga kirib, ma‘lum vaziyatda o‘zini tutish orqali maqsadli tajriba orttiradigan metoddir. Sa‘diy asarlaridagi murakkab axloqiy holatlar (masalan: kechirimlilik, adolat, halollik, mulk va hokimiyatga munosabat kabi) asosida sahnalashtirilgan rolli mashg‘ulotlar:

- axloqiy tanlov qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- o‘z harakati oqibatini ilgari ko‘ra olish qobiliyatini oshiradi;
- turli nuqtayi nazarlarni qabul qilish va baholashga yordam beradi.

Masalan, bir guruh sulton obrazida, boshqasi darvesh, yana biri oddiy xalq vakili sifatida rollarda qatnashib, bir hikoya yuzasidan fikr bildirish orqali o‘zaro munozara olib boradi.

Sa‘diy Sheroziyning axloqiy g‘oyalari interaktiv metodlar orqali o‘rganilganda, talabalarda nafaqat bilim, balki ongli va hissiy idrok shakllanadi. Bu yondashuvlar o‘quv jarayonini jonlantiradi, talabalarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi va ularni hayotda uchraydigan axloqiy muammolarga nisbatan ongli yondashishga tayyorlaydi. Shuningdek, ma‘naviy tarbiya jarayonini samaraliroq va hayotiyroq qiladi.


4. *Ijtimoiy media va raqamli platformalar orqali targ‘ib qilish.* Zamonaviy axborot maydonida yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar va axloqiy mezonlari katta darajada raqamli makon orqali shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning eng faol vaqtini egallagan platforma sifatida ma‘naviy tarbiya uchun ham samarali vositaga aylanishi mumkin. Ayniqsa, Sa‘diy Sheroziy kabi mutafakkirlarning chuqur ma‘noli fikrlarini qisqa, lo‘nda va ta‘sirli sitatlar (hikmatli iqtiboslar) ko‘rinishida yetkazish bu yo‘lda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yondashuv esa bu his-tuyg‘ularni ongli ravishda shakllantirish, ularni maqsadga muvofiq yo‘naltirish va rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Tarbiya jarayonida axloqiy his-tuyg‘ular nafaqat shaxs ichki dunyosining mahsuli, balki atrof-muhit, ta‘lim mazmuni, tarbiyaviy usullar va shaxsiy tajriba bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi.

Shu asosda Sa‘diy Sheroziy g‘oyalariga tayangan ma‘naviy-axloqiy tarbiya modeli ishlab chiqilib, uning asosiy komponentlari *1-jadvalda* keltirildi.

Sa'diy Sheroziy g'oyalari o'qitishda didaktik yondashuvlarning pedagogik modeli

1-jadval



Zamonaviy ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan chegaralanmay, balki shaxsni har tomonlama tarbiyalash, uning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish va axloqiy fazilatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi. Ana shu tarzda Sa'diy Sheroziy g'oyalarini o'qitish jarayoni o'quvchilarda ayni ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradigan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'riladi. Bugungi globallashtirish davrida yosh avlodda yuksak axloqiy mezonlar, ijtimoiy birdamlik, mehr-oqibat, adolatparvarlik va sabr-toqat kabi qadriyatlarini shakllantirishga kuchli ehtiyoj mavjud. Sa'diy asarlaridagi g'oyalar ushbu ehtiyojlarni quyidagi yo'nalishlarda samarali qamrab oladi:

Ijtimoiy hamjihatlik va birdamlik: Sa'diy "Bani Odam" ruboisida insoniyatni yagona tana sifatida tasvirlaydi. Bu g'oya talabalarda ijtimoiy birdamlik va empatiya tuyg'usini rivojlantiradi. Sa'diy hikoyatlarida adolatsizlikning oqibatlari, boshqaruvchilarning halolligi va fuqarolarning axloqiy majburiyatlari keng yoritiladi. Bu orqali ijtimoiy ongni shakllantirish mumkin.

Axloqiy muvozanat va sabr-toqat: Tarbiya jarayonida yoshlarning ijtimoiy ziddiyatlarga to'qnash kelganda sabrli, murosali va qat'iyatli bo'lishlari zarur. Sa'diy esa bu fazilatlarni o'rganish uchun boy badiiy material taqdim etadi. Shu asosda ijtimoiy ehtiyojga javob beruvchi tarbiyaviy maqsadlarni belgilash mumkin. Sa'diy g'oyalariga asoslangan pedagogik model, quyidagi ijtimoiy ehtiyojlar asosida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshiradi:

Ijtimoiy ehtiyojga javob beruvchi tarbiyaviy maqsadlar

2-jadval

Ijtimoiy ehtiyojlar	Tarbiyaviy maqsadlar
Insonparvarlikka ehtiyoj	Talabalarda mehr-shafqat, bag'rikenglik hissini tarbiyalash.
Axloqiy halollik ehtiyoji	Rostgo'ylik, vijdon va adolatga sodiqlikni mustahkamlash.
Jamiyatga foydali bo'lish ehtiyoji	Mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.
Boshqalarni tushunish ehtiyoji	Empatiya va sotsial hissiyotlarni rivojlantirish.
O'z-o'zini anglash ehtiyoji	O'zini axloqiy jihatdan baholash, o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

